

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛМИ ВА УРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ**

ХОРИЖИЙ ФИЛОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТИ

ИНГЛИЗ ФИЛОЛОГИЯСИ КАФЕДРАСИ



**ТИЛШУНОСЛИК. АДАБИЁТШУНОСЛИК.
ТАРЖИМАШУНОСЛИК**

**МАГИСТРАТУРА ВА БАКАЛАВРИАТ
ТАЛАБАЛАРИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

I

Xolboyeva Orzigul
QarshiDU, 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. Odilova G.K.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ZONIM FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASIGA OID

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm ⁶⁷deyiladi:

Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, Hayvonlar sayyoramiz hayotida doim muhim ahamiyatga ega. Ular ibtidoiy odamlarning marosimlarida ilohiylashtirilib qo'llanilgan va ko'pgina lingvistlarning ta'kidlashlaricha aynan ana shu marosim (ritual)lardan til vujudga kelgan.

Hayvonlarning nomi yoki hayvonlarga qo'yilgan laqab bilan qo'llanuvchi frazeologik birliklar zoonimlar deyiladi⁶⁸.

Insonlar hayvonlarning hayotini kuzatib, ularni inson bilan taqqoslab, unda insonga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlarni ko'rgan. Ba'zi hayvonlarga qo'rqqolikka xos (quyon), ba'zilariga ayorlikka (tulki) xos nisbatlar berilgan. Ko'p xalqlarning hayvonlarning nomi bilan bog'liq ramzlari bir-biriga mos kelsada, shu bilan birga har bir xalqning hayvonlarga nisbatan o'z munosabatlari ham mavjud. Masalan :

O'zbek tilida : *Tulkiday ayyor*

Ingliz tilida : 1. *as cunning as a fox* – «*tulkiday ayyor*»;

2. *A hungry fox dreams about chicken* – «*och tulki jo'jalarni orzu qiladi*».

Ikkala xalqda ham "tulki" so'zi bilan bog'liq frazeologik birliklar "ayyorlik, makkorlik, ahdidanqaytish, o'zso'zidaturmaslik, xoinlik, munofiqlik, xiyonatkorlik, vafosizlik" kabi illatlatni aks ettiruvchi insonlarga nisbatan qo'llaniladi.

Ingliz tili frazeologizmlari xilma-xil bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra 2 turgabo'linadi: qadimgi ingliz frazeologik birliklari va boshqa tillardan o'zlashtirilgan frazeologik birliklar. O'z navbatida o'zlashtirilgan frazeologik birliklar til ichidagi vatillararo turlarga ajratiladi.

Demak, ingliz frazeologik birliklarini 4 guruhga ajratamiz:

Qadimdan mavjud bo'lgan ingliz frazeologik birliklari.

Tillararo o'zlashtirilgan frazeologik birliklari, ya'ni boshqa tillardan tarjima qilinib o'zlashtirilgan frazeologik birliklar.

Til ichida o'zlashtirilgan ingliz frazeologik birliklar, ya'ni ingliz tilining amerika variant asosida o'zlashtirilgan frazeologik birliklar.

⁶⁷В. Н. Телия, Что такое фразеология? Издательство «Наука», Москва, 1966г., с.7

⁶⁸Г. Шепилова, «Французские фразеологические единицы с компонентом-зоонимом», 2001 г.

Boshqa tilda gapiruvchi aholidan o'zlashtirilgan frazeologik birliklar.

Qadimdan mavjud bo'lgan ingliz frazeologik birliklari. Frazeologik birliklarning ko'pchiligi qadimdan mavjud bo'lgan ingliz frazeologik birliklari hisoblanib, ularning muallifi kimligi noma'lum. Masalan: afsonalar bilan bog'liq frazeologik birliklar: *a black sheep-tirraqi buzoq-yomon buzoq butun podani bulg'aydi* (qadimgi afsona rivoyatlarga ko'ra, qoraqo'y iblis (shaytonning) muhri hisoblangan).

O'zlashtirilgan frazeologik birliklar. Bibliya o'zlashtirilgan frazeologik birliklarda eng muhim adabiy manba hisoblanadi. Bibliyadan o'zlashtirilgan zoonimli frazeologik birliklarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

can the leopard change his spots? – nahotki leopard (qoplun) o'zining dog'li terisini o'zgartirsa. Bukrini qabr to'g'irlyadi.

cast pearls before swine – eshakning qulog'iga tanbur chalmoq (chertmoq)

Turli tillardan o'zlashtirilgan frazeologik birliklar. Ingliz frazeologizmlarining aksariyati antic afsonalar (rivoyatlar), tarix va adabiyot bilan bog'liq. Bu frazeologizmlarning ko'pchiligi ko'p tillarda uchraganligi sababli, internatsional xarakterga ega. Shu afsonalardan kelib chiqqan quyidagi frazeologik zoonimda:

The Trojan Horse – Troya oti, xavfni yashiruvchi; mardlik, jasorat, qahramonlik ifodalangan.

Qadimgi Rim yozuvchilariga oid bo'lgan zoonimli frazeologik birliklar:

a snake in the grass – ilonday qo'yningga kirib oladigan odam, makkor (xavfli odam)

Nemis tilidan o'zlashtirilgan zoonimli frazeologik birliklar:

let the cat out of the bag – sirini ochib qolmoq

go to the dogs – g'azablanmoq, barbod qilmoq, halok qilmoq.

AQSHdan Angliyaga juda ko'p frazeologik birliklar kirib kelgan bo'lib, hozirda ular ingliz tiliga juda singib ketgan. Masalan: *Swap horses while crossing a stream – Kechish paytida otlarni almashtirish* 69.

Keyinchalik ushbu frazeologik birlikning boshqa quyidagi variant paydo bo'ldi: *Change horses while crossing a stream.*

Shuningdek ingliz tilida rus tili, dat tili, ispan tili, golland tili, italyan tili, xitoy va hokazo tillardan o'zlashtirilgan frazeologik birliklar bor.

Hayvonlarning nomlanishi (zoonimlar) dunyodagi barcha tillarning so'z boyligining tarixiy va etnik qatlamiga mansub. Kishilar xis tuyg'ularini, axloq-odobini, tashqi ko'rinishini, xolatini jonzotlarga o'xshatish va taqqoslash yo'llari bilan tasvirlab berishadi. Frazeologizmning ichki mazmuni shundan iboratki, turli-tuman odamlarning hayot va karakterlarini yoritib beradi. Yaxshilik va yomonlikni muvaffaqiyat yoki omadsizlikni, ularni hayotiy taassurotlari va xis tuyg'ularini, maqullash, maqullamaslik, do'stona munosabatlar, dushmanlik, urush janjallar, odamlar o'rtasidagi raqobat, makkorlik, hukm qilish, jazo tayinlash.

⁶⁹A.Linkoln. Speech.Reply to National Union League

Ingliz va Uzbek tillarini qiyoslash natijasida zoonim frazeologizmlarning ikki millat tafakkuri va ongida hosil bo'lgan konseptosferani tahlil qilish imkoniyati vujudga keladi. Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb vazifalaridan biri ana shunday qiyosiy tahlillarni amalga oshirib, zoonim frazeologizmlarni tarjimada qayta yaratishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.В. Н. Телия. Что такое фразеология?издательство «Наука», Москва, 1966г., с.7
- 2.Т. Шепилова, «Французские фразеологические единицы с компонентом-зоонимом», 2001 г.
- 3.A.Linkoln. Speech.Reply to National Union League

Xoliyorova Ch.D.

O'zMU, Xorijiy filologiya fakulteti,

Filologiya va tilarni o'qitish (ingliz tili) yonalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: o'qit. Ubaydullayeva I.Sh.

INGLIZ TILI DARSLARIDA INFINITIVNI O'RGATISH USULLARIGA DOIR

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, o'zbek madaniy merosi, boy manaviyati, yuksak qadriyatini xorijiy davlatga tanitishda tilning o'rni beqiyosdir. Shu sababli ham mamlakatimizda chet tillarini o'zlashtirishga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Har bir maktab, kollej, akademik litsey hamda barcha universitet yoshlariga chet tilini o'rganish borasida barcha qulayliklarni yaratib bermoqda.

Ingliz tili nima uchun o'qitiladi? - degan savolga ingliz tilini amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda o'rganadilar deb javob qaytaradilar. 1980-yillarga kelib chet tili o'qitish metodikasiga G.V. Rogova yana bitta "rivojlantiruvchi" maqsadni qo'shdi. Shunday qilib, chet tili o'qitish metodikasi to'rt maqsadda o'qitiladi: amaliy, talimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

Masalan, ingliz tilida felning shaxssiz shakli infinitivni olaylik. Ingliz tili terminlarida felning shaxssiz formasiga olimlar tomonidan har xil nomlar berilgan: V.L.Kaushavskiy va K.N.Kachalovalar "*non-finite*", Ivanova I.P "*verbals*", B.S Xaymovich va L.S.Barxudarovlar "*fe'lning sof shakli*" deb nomlashgan. Infinitivni dars jarayonida o'rgatish metodikasini turli yo'llar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- 75 **Тиллябов Ш.** *Инглиз ва узбек лингвомаданиятида "кечирим сўраш"га оид сўзларнинг акс эттирилиши*
- 76 **Турсункулова А.** *Гипонимические преобразования как вид переводческих трансформаций*
- 77 **Тўйчиева Н.** *Ёзувчи услуги ва бадиий метод*
- 78 **Usmonova D.** *Gender and its differences*
- 79 **Хашимова З.** *Эргоним как понятие*
- 80 **Холбоева О.** *Ingliz va o'zbek tillaridagi zoonim frazeologizmlar tarjimasiga oid*
- 81 **Xoliyorova Ch.** *Ingliz tili darslarida Infinitivni o'rgatish usullariga doir*
- 82 **Xoshimova I.Q.** *Ingliz va o'zbek tillarida kiyim-kechak haqidagi paremiyalarning semantic tahlili*
- 83 **Шаймулина Э.** *Особенности английских и русских пословиц и поговорок на структурно-семантическом уровне*
- 84 **Sherboyev N.** *Drama va uning san'at olamidagi o'rni*
- 85 **Эштўхтарова Б.Б.** *Публицистик матнда маълумот турлари*
- 86 **Ҳарийева З.** *Semantic roles of wanting predicates*
- 87 **Юлдашева Н.** *Лексико-семантические особенности поля «одобрение» в английском и русском языках*
- 88 **Яриева З.** *Иштиёқ ва қобилият предикатларининг тематик гуруҳлари*
- 89 **Қобилжоновна Ш.** *Инглиз тилида мулозамат концептининг талқини*
- 90 **Қурбонова Н.** *Fuss, bein соматизмлари қатнашган соматик фразеологизмларнинг баъзи семантик хусусиятлари*